

U.F.Hakimov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

YURIDIK SHAXSLAR VA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNING SOLIQ QARZLARINI PROGNOZ QILISH YO’LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada statistik ma’lumotlar asosida ekonometrik modellarni qo’llagan holda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzlarini prognoz qilish o‘rganilgan. Xususan, olingan natijalar chiziqli bo‘limgan regressiya tenglamasi va kichik kvadratlar usullarida prognoz qilingan.

Shuningdek, soliq qarzi bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning fikr va mulohazalari tadqiq qilingan hamda davlatimizda soliq qarzlarini kamaytirish va samarali undirishni takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq qarzi, ekonometrik model, kichik kvadratlar usuli, chiziqli bo‘limgan regressiya tenglamasi, korrelyatsion tahlil, soliqlar va yig‘imlar.

METHODS FOR PREDICTING THE TAX DEBT OF LEGAL ENTITIES AND INDIVIDUAL ENTREPRENEURS

Annotation. This article examines tax debts of juridical persons and individual entrepreneurs paid by them using econometric models based on statistical data. Specifically, results were predicted using non-linear regression equations and small squares.

In addition, opinions of foreign and domestic scholars about tax debts were studied, also suggestions and recommendations are given about reduction and improving the effective collection of tax arrears in our country.

Keywords: tax debts, econometric model, small squares method, nonlinear regression equation, correlation analysis, taxes and fees.

Kirish

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tadbirkorlikni jadal qo’llab-quvvatlash bilan bирgalikda soliq tizimini ham keng rivojlantirishga qaratilgan.

Soliq tizimi, soliqlar - davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishda eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillardanoq barcha sohalar singari soliq sohasida ham ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Ushbu masala yuzasidan olib borilgan ishlar nafaqat soliqlar va yig‘imlarni undirish orqali, balki soliq qarzlarini kamaytirgan holda davlat budgetini to‘ldirishga qaratilgan.

Bu borada davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev “2019-yildagi yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 baravar kamaytirilganligi, natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko‘paydi. Islohotlarimiz natjasida o‘tgan yili 93 mingta yoki 2018-yilga nisbatan qariyb 2 baravar ko‘p yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi. Shuningdek, 2020-yildan boshlab yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ortiqcha to‘langan yoki soliq

organi tomonidan asossiz undirilgan soliq to‘lovlari o‘z muddatida qaytarilmasa, unga Markaziy bankning asosiy stavkasi bo‘yicha budgetdan foiz hisoblagan holda hisobraqamiga qaytarib beriladi.” – deya ta’kidladi. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti daromadlarining asosiy qismi aynan soliqlar va yig‘imlar hisobidan shakllanishi ma’lum. Soliqlar belgilangan muddatda va to‘liq hajmda tushishi davlat miqyosida amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlarning, ya’ni budget va maqsadli jamg‘armalarning xarajat qismini o‘z vaqtida moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy salohiyatini yanada takomillashtirish, ularga keljakda ma’qul keladigan hamda budgetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha tushumlarni ko‘paytirish imkonini beradigan mexanizmni yaratish, korxonalarining investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorligini ta’minalash, asoslantirilgan takliflarni topish va ular faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha amaliy maslahatlar va aniq yechimlar ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Shu munosabat bilan soliqlar va yig‘imlarni belgilangan muddatda hamda to‘liq kelib tushishini ta’minalash vazifasi muhim ahamiyatga egadir. Soliqlarni muddatida to‘lanishini ta’minalash esa soliq qarzini imkon qadar paydo bo‘lishini oldini olish va paydo bo‘lgandan so‘ng uni samarali undirish bilan amalga oshiriladi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu masalaga alohida e’tibor berilganligini ham qayd etib o‘tishimiz kerak. Chunki, uning 51-moddasida “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdir” - deb yozib qo‘yilgan. [2]

Demak, soliq to‘lovchilarning soliq qarzlarini qisqartirish va yangi qarzlarini paydo bo‘lishini oldini olish, ularni tahlil qilish hamda soliqlar va yig‘imlarni belgilangan muddatda budgetga kelib tushishini nazorat qilish soliq organlarining e’tibor beriladigan eng muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mamlakatimiz moliya va soliq tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, shu jumladan, soliqlar va yig‘imlarni undirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mazkur masala bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijlik olim Margherita Ebraico mamlakatda soliqlar va yig‘imlarni undirilishini rivojlantirish va rag‘batlantirish bilan bir qatorda soliq qarzi mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchilarga qat’iy choralar qo‘llanilishi, kelgusida soliqlar va yig‘imlar undirilishi bo‘yicha soliq qarzlarining kamayishi va ularning vujudga kelishini oldini olishda ijobjiy samara berishini ta’kidlab o‘tadi. [3]

Martin Thomsenning fikricha oxirgi yillarda yirik korxonalar tomonidan soliqdan qochish holatlari ko‘p kuzatilmoqda. Buning sababi, ularga nisbatan soliq yukining yuqori ekanligi hisoblanadi. Korxonalarda soliq qarzi yuzaga kelishi ham soliq yukining baland bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Misol uchun soliq yuki AQSHda 29,8 foizni, Buyuk Britaniyada 34,6 foizni va Germaniyada 37 foizni tashkil etadi.

Soliq yukini yillar davomida pasaytirib borish kelgusida soliq to‘lashdan qochish va soliq qarzlarini vujudga kelish holatlarini kamaytiradi. [4]

Xorijlik olim Michael Brostek esa o‘z tadqiqotida soliq qarzini undirilishining samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi omillarini ko‘rsatib o‘tadi, xususan:

- mamlakatda soliq qarzi summalarining paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘yishni oldini olishda soliq yukini pasaytirish kelajakda soliq qarzdorliklari kamayishiga olib keladi;
- muddatida to‘lanmagan soliqlar va yig‘imlarni undirish strategiyasi faqat belgilangan davr mobaynida o‘z ijobjiy natijasini beradi. [5]

Marcel Fischerning o‘zining tadqiqotida yirik korxonalar to‘laydigan foyda solig‘i hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘laydigan daromad solig‘ini o‘rgangan. Bunda, umumiy soliq qarzdorligi va soliq qalqoni muvozanati samaradorligi tadqiq etilgan.

Yirik korxonalar tomonidan soliq to‘lashdan qochish holatlari to‘xtamasa, soliq yuki qolgan boshqa o‘rta va kichik korxonalar faoliyatiga yomon ta’sir qilishi to‘g‘risida o‘zining fikrini izohlagan. [6]

Bu borada rus tadqiqtchilar, S.N. Alixin va D.A. Levachevalar o‘zlarining ilmiy tadqiqtalarida soliq qarzini undirish mexanizmining nazariy asoslarini keltirib o‘tishgan. Unga ko‘ra, ular soliq qarzini undirish soliq bazasini kengaytirish bilan birgalikda uni soliq to‘lovchidan undirish murakkabligini ta’kidlab, bu jarayonga alohida yondashuvni inobatga olgan holda soliq qarziga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holatidan kelib chiqib undirish mexanizmni ishlab chiqish kerakligini ta’kidlashgan. [7]

Bundan tashqari, I.G. Vinoxodova ham o‘zining ilmiy ishida soliq qarzlarini undirishda soliq qarzi mavjud xo‘jalik yurituvchi subyektlardan mol-mulklarini xatlash jarayonini ko‘paytirish samarali natija berishini aytib o‘tadi. [8]

Shuningdek, I. Niyazmetovning ta’kidlashicha soliq qarzi yuzaga kelishini “QQS va mulkiy soliqlar yukining asosan sanoat korxonalari zimmasiga yuklatilganligi soliq yukining notejis joylashuviga, sanoat korxonalari soliq yukining nisbatan og‘ir bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa korxonalarda soliq qarzi muammosini tugatishga yo‘l bermaydi. Soliq qarzlarining katta qismi umumbelgilangan soliqlar kesimiga to‘g‘ri keladi. Bu esa, soliq yukining umumbelgilangan tartibda soliq to‘lovchi korxonalar moliyaviy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan darajada og‘irligidan dalolat beradi. [9]

Shu bilan bir qatorda mahalliy tadqiqtchilar ham soliq qarzini undirishdagi muammolarni bartaraf etish borasida fikrlarini o‘zlarining tadqiqtalarida keltirgan. Jumladan, Sh. Toshmatov o‘z tadqiqt ishi doirasida O‘zbekiston Respublikasida soliq qarzini undirish tizimini ham isloh etish kerakligini ta’kidlagan. Shuningdek, yangicha soliq qarzlarini undirish mexanizmini joriy etish kerakligi sababli, ushbu sohaning keyingi yillardagi soliq qarzlarini to‘liq tahlil etish, mavjud ma’lumotlarga asosan to‘g‘ri va aniq proqnoz qilishga asoslanishi ta’kidlab o‘tilgan. [10]

Shu bilan birgalikda, A. G‘iyosov o‘zining ilmiy maqolasida soliq organlari tomonidan asosiy hisobraqamga qo‘yilgan inkasso topshiriqnomasi bir oy muddatda to‘liq yoki qisman bajarilmagan taqdirda, soliq qarzini undirishni xo‘jalik yurituvchi subyektning qolgan barcha hisobraqamlariga qaratilishini belgilab qo‘yish tartibini joriy etish orqali soliq to‘lashdan qochishning oldi olinadi.

Buning uchun soliqqa oid tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishi, mavjudlariga esa o‘zgartirish va qo’shimchalar kiritilgan holda amaliyatga joriy qilinishi soliq to‘lovchilarining soliqqa doir huquqiy savodxonligini oshirishda, to‘lov madaniyatini mustahkamlashda va soliq ma’murchiligining samaradorligini kuchaytirish orqali soliq qarzlarini paydo bo‘lmasligida sezilarli natijalarga erishiladi degan tanqidiy qarashlarini ilgari surgan. [11]

Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik subyektlaridan soliq qarzlarini undirishni pandemiya sharoitida keskin kamaytirish, ularga soliq imtiyozlari va yengilliklar berilishi soliq to‘lovchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyatini inqirozga yuz tutishidan asrash muhim ahamiyat kasb etadi hamda soliqlarni undirishga qilinadigan ortiqcha xarajatlardan voz kechish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan, qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari davlat budjeti daromadlarini oshirishda soliq qarzlarini undirish mexanizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va asosiy natijalar

Quyida ko‘rsatilgan 1-jadvalning 2016-2019-yillardagi statistik ma’lumotlardan foydalangan holda, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning 2020-yilda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan soliq qarzlarini prognoz qilishni eng kichik kvadratlar usuli va chiziqli bo‘lмаган parabolik regressiya tenglamasi yordamida ko‘rib chiqamiz.

1-jadval

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning yillar kesimidagi soliq qarzi summasi¹

X	Yillar	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzi summasi (mlrd.so‘mda) (Y)
1	2016	6 533,6
2	2017	4 239,5
3	2018	3 045,1
4	2019	2 385,3

1-usul. Eng kichik kvadratlar usuli yordamida prognozlash. Kichik kvadratlar usuli yordamida izlanayotgan to‘g‘ri chiziqning Y o‘qi bilan kesishish nuqtasi va X o‘qi bilan hosil qilgan burchak tangensi uchun quyidagi formulalar yordamida topiladi:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

$$b_1 = \frac{n \sum_{i=1}^n X_i Y_i - (\sum_{i=1}^n X_i)(\sum_{i=1}^n Y_i)}{n \sum_{i=1}^n X_i^2 - (\sum_{i=1}^n X_i)^2}; \quad (1)$$

$$b_0 = \frac{\sum_{i=1}^n Y_i}{n} - b_1 \frac{\sum_{i=1}^n X_i}{n}, \quad (2)$$

bunda n -tanlanma hajmi, X_i – i -qadamdagi kuzatish, Y_i – i -qadamdagi kuzatishning qiymati.

Shunday qilib, regressiya to‘g‘ri chiziq tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\vec{Y} = b_0 + b_1 X. \quad (3)$$

Ishonchlilik koeffisienti esa,

$$R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^n (Y_i - \vec{Y}_i)^2}{\sum_{i=1}^n (Y_i - \bar{Y})^2} \quad (4)$$

Formula bilan hisoblanadi. Bu yerda, Y_i – i -qadamdagi kuzatishning qiymati, \vec{Y}_i – i -qadamdagi (3) tenglamaning qabul qiladigan qiymati, \vec{Y} – Y -kuzatishlarning o‘rtacha qiymati, ya’ni

$$\bar{Y} = \frac{\sum_{i=1}^n Y_i}{n}. \quad (5)$$

1-jadvaldagi ma’lumotlardan foydalanib, 2-jadvalni to‘ldirib olamiz.

2-jadval

\vec{Y}_i – Y -kuzatishlarning o‘rtacha qiymatini toppish jadvali²

i	X_i	Y_i	$X_i Y_i$	X_i^2
1	1	6 533,6	6 533,6	1
2	2	4 239,5	8 479,0	4
3	3	3 045,1	9 135,3	9
4	4	2 385,3	9 541,2	16
Yig‘indi	10	16 203,5	33 689,1	30

2-jadvaldagi ma’lumotlarni va $n=4$ (kuzatuvlari soni yoki tanlanma hajmi)ni (1) formulaga qo‘yilib quyidagi qiymatlar topib olinadi:

² O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

$$b_1 = \frac{4 * 33\ 689,1 - 10 * 16\ 203,5}{4 * 30 - 10^2} = -1\ 363,93$$

$$b_0 = \frac{16\ 203,5}{4} - (-1\ 363,93) * \frac{10}{4} = 7\ 460,7$$

Topilgan qiymatlarni (3) regressiya to‘g‘ri chiziq tenglamasiga olib kelib qo‘yiladi va $\vec{Y} = b_0 + b_1 X = 7\ 460,7 - 1\ 363,93x$ ko‘rinishidagi tenglama hosil qilinadi.

Regressiya to‘g‘ri chiziq tenglamasiga $x=5$ qiymati qo‘yiladi va $y=641,05$ soni hosil qilinadi. Demak, 1-usul natijasiga ko‘ra, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning 2020-yilda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan soliq qarzi summasi 641,05 mlrd. so‘mni tashkil etishini prognoz qilish mumkin.

Bu prognozning amalga oshish ehtimolligini esa, (4) formuladan foydalanib aniqlaymiz. Buning uchun bizga 3-jadval ma’lumotlari kerak bo‘ladi va uni to‘ldirib olamiz.

3-jadval

Prognozning amalga oshish ehtimolligini topish³


i	Y_i	\vec{Y}_i	$(Y_i - \vec{Y}_i)^2$	$(Y_i - \vec{Y})^2$
1	6 533,6	7 460,7-1 363,93*1=6 096,77	190 820,45	34 722 145,5
2	4 239,5	7 460,7-1 363,93*2=4 732,84	243 384,36	12 948 842,4
3	3 045,1	7 460,7-1 363,93*3=3 368,91	104 852,91	5 779 456,4
4	2 385,3	7 460,7-1 363,93*4=2 004,98	144 643,3	3 042 408,0
Yig‘indi			683 701,02	56 492 852,3

3-jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra,

$$R^2 = 1 - \frac{683\ 701,02}{56\ 492\ 852,3} = 0,987897$$

Topilgan qiymatni foizga o‘girsak, demak, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning 2020-yilda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan soliq qarzi summasi 641,05 mlrd. so‘mni tashkil etishi 98,7 foiz aniqlikda prognoz qilinadi.

³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



1-rasm. Regressiya to‘g‘ri chizig‘i, uning tenglamasi va ishonchlilik koeffisienti.⁴

Microsoft Excel dasturida avtomatik ravishda tayyorlangan 1-rasm ma’lumotlaridan ham 1-usul natijalari to‘g‘ri ishlab chiqilganligini ko‘rishimiz mumkin.

2-usul. Chiziqli bo‘lmagan parabolik regressiya tenglamasi yordamida prognozlash. Bu usulda izlanayotgan chiziqning tenglamasi quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$\bar{Y} = b_0 + b_1 x + b_2 x^2 \quad (6)$$

(6) formuladagi koeffisientlar quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini yechish orqali aniqlanadi:

$$\begin{cases} b_0 * n + b_1 * \sum_{i=1}^n x_i + b_2 * \sum_{i=1}^n x_i^2 = \sum_{i=1}^n y_i, \\ b_0 * \sum_{i=1}^n x_i + b_1 * \sum_{i=1}^n x_i^2 + b_2 * \sum_{i=1}^n x_i^3 = \sum_{i=1}^n x_i y_i, \\ b_0 * \sum_{i=1}^n x_i^2 + b_1 * \sum_{i=1}^n x_i^3 + b_2 * \sum_{i=1}^n x_i^4 = \sum_{i=1}^n x_i^2 y_i \end{cases} \quad (7)$$

Chiziqli bo‘lmagan parabolik regressiya tenglamasining koeffisientlarini topish uchun 1-jadvaldaggi ma’lumotlarni quyidagi 4-jadvalga joylashtiramiz va kerakli qiymatlarni topib olamiz.

⁴ G. Nasritdinov (2008). “Ekonometrika” O‘quv-uslubiy qo’llanma. O‘zbekiston. “Iqtisod-moliya”.

Chiziqli bo‘limgan parabolik regressiya tenglamasining koeffisientlarini topish jadvali⁵


i	x_i	y_i	x_iy_i	x_i²	x_i²y_i	x_i³	x_i⁴
1	1	6 533,6	6 533,6	1	6 533,6	1	1
2	2	4 239,5	8 479,0	4	16 958,0	8	16
3	3	3 045,1	9 135,3	9	27 405,9	27	81
4	4	2 385,3	9 541,2	16	38 164,8	64	256
Yig‘indi	10	16 203,5	33 689,1	30	89062,3	100	354

Topilgan qiymatlarni (7) tenglamalar sistemasiga qo‘yib, sistema yechilsa, quyidagi natijalarga erishiladi: $b_0 = 3376,4385$; $b_1 = 408,575$; $b_2 = -354,501$. Topilgan koeffisientlar (6) tenglamaga qo‘yilsa, tenglamaning ko‘rinishi ham topiladi:

$$\bar{Y} = 3376,4385 + 408,757x - 354,501x^2 \quad (4)$$

formuladan ishonchlilik koeffisienti $R^2 = 0,89902$ ekanligini aniqlaymiz.

Parabolik regressiya tenglamasiga $x=5$ qiymat qo‘yilib, $y=2 192,3$ soni hosil qilinadi. Demak, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirdorlarning soliqlar va yig‘imlardan **2 192,3 mlrd. so‘mni** ortiqcha mablag‘ (yoki **-2 192,3 mlrd. so‘m** soliq qarzi) tashkil etishini prognoz qilish mumkin. Bu prognozning amalga oshish ehtimolligi (4) formuladan 89,9 foiz bo‘lishi mumkinligi aniqlanadi.



2-rasm. Chiziqli bo‘limgan parabolik regressiya tenglamasi, uning chizig‘i va ishonchlilik koeffisienti.⁶

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁶ G. Nasridinov (2008). “Ekonometrika” O‘quv-uslubiy qo‘llanma. O‘zbekiston. “Iqtisod-moliya”.

Microsoft Excel dasturida avtomatik ravishda tayyorlangan 2-rasm ma'lumotlaridan 2-usul natijalarini to'g'ri ishlab chiqilganligini ko'rishimiz mumkin.

Trend modellari asosida har bir ko'rsatkich bo'yicha olingan prognozlar barqaror o'sish tendensiyalarini ko'rsatish bilan birga, ushbu sohadagi o'zaro bog'liqlik qonuniyatlarini ham izohlashga asos yaratib beradi:

5-jadval

Trend modellari asosida har bir ko'rsatkich bo'yicha olingan prognozlar barqaror o'sish tendensiyalarini bog'liqlik qonuniyatları⁷

Model nomi	Tenglamaning ko'rinishi	Ishonchlilik koeffisienti (foizda)	Kelgusi yildagi yillik aylanma miqdori (mlrd. so'm)
To'g'ri chiziqli regressiya (I-usul)	$\tilde{Y} = 7\ 460,7 - 1\ 363,93x$	$R^2 = 98,7$	641,05
Chiziqli bo'lmagan parabolik regressiya (II-usul)	$\bar{Y} = 3\ 376,4385 + 408,757x - 354,501x^2$	$R^2 = 89,9$	-2 192,3

Tadqiqot natijalarining muhokamasi

Topilgan miqdorlardan ko'rinish turibdiki, 1-usulda 641,05 mlrd. so'm soliq qarzi vujudga kelishi prognoz qilinayotgan bo'lsa, 2-usulda 2 192,3 mlrd. so'm (-2 192,3 mlrd. so'm soliq qarzi) soliqlardan ortiqcha to'lov bo'lishi taxmin qilinmoqda. Albatta 1-rasmdagi ma'lumot haqiqatga yaqin hisoblanadi.

Bundan tashqari, 1-usuldagagi miqdorni prognoz qilish deyarli 100 foizlik ishonchlilik koeffisientni bermoqda.

Birinchi va ikkinchi rasmlarda hosil qilingan tenglamalar grafiklarini solishtiradigan bo'lsak, birinchi rasmdagi grafik birinchi jadvalda berilgan miqdorlarga mos qiymatlarning ko'proq qismini o'zida mujassamlashtirgan.

Demak, 1-usul bo'yicha hisoblab topilgan miqdorni 2020-yilda prognoz qilish maqsadga muvofiq bo'lar ekan.

Xulosa va takliflar

Yuqorida ekonometrik modellar yordamida amalga oshirilgan tahlillar hamda uning natijalaridan kelib chiqib, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzlarini kamaytirishga imkon beruvchi soliq qarzini undirish mexanizmini yanada rivojlanish maqsadida quyidagi islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

⁷ X. Berkinov, A. Berkinova, B. Sultonov, X. Xoldorov (2008) "Iqtisodiy masalalarda korrelyatsion-regression tahlil modellari tatbiqi". O'zbekiston. O'quv-uslubiy qo'llanma ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

- soliq qarzlarini prognoz qilishda hamda unga asosan soliq siyosatini to‘g‘ri ishlab chiqishda Davlat soliq xizmati organlari faoliyatida iqtisodiy tahlil va korrelyatsion-regression tahlil modellarini qo‘llash lozim;

- jismoniy shaxslardan undiriladigan yer va mulk soliqlarini oldindan undirish ya’ni misol qilib aytganda, 2021-yil yer va mulk soliqlarini 2020-yil oxiriga qadar undirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

- soliq qarzi bo‘lmagan yuridik va jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor)lar uchun rag‘batlantirish sifatida soliq organidan alohida xodim biriktirilishi lozim. Biriktirilgan xodim soliq to‘lovchining soliq va moliyaviy hisobotlarini topshirishi, soliq to‘lovchini uning faoliyati bilan bog‘liq o‘zgarishlardan xabardor qilib borishi, soliq maslahatlari berishi va hokazolarni amalga oshirishi;

- soliq qarzini undirishni soliq to‘lovchining bankdagi hisobvarag‘idan tashqari uning elektron pul mablag‘ (WebMoney, PayPal, QIWI, Yandex деньги ва h.k.)larga qaratishni yo‘lga qo‘yish mexanizmini ishlab chiqish;

- soliq qarziga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi yuridik va yakka tartibdagi tadbirkorlarning ro‘yxati tuzilib, ommaviy axborot vositalarida hamda boshqa ijtimoy tarmoqlarda e‘lon qilib borilish tizimini yo‘lga qo‘yish;

- rivojlangan mamlakatlarda keng qo‘llaniladigan soliq qarzni to‘lashda soliq to‘lovchi soliq organi bilan kelishgan holda shartnoma asosida ma’lum bir davrda to‘lash muddatini belgilash tizimini yo‘lga qo‘yish.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent “O‘zbekiston” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2015 y.

3. Margherita Ebraico (2015). An Assessment of the Performance of the Italian Tax Debt Collection System. Italia.Taxation papers.

4. Martin Thomsen, Christop Watrin (2018). Tax avoidance over time: A comparison of European and U.S. firms. America. Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. P. 40-63. (www.sciencedirect.com)

5. Michael Brostek (2009). Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. America. United States government Accountability office.

6. Marcel Fischer (2019). The debt tax shield in general equilibrium. America. Journal of Banking & Finance. Volume 100. P. 151-166. (www.sciencedirect.com)

7. Алихин С.Н., Левачева Д.А. (2018). Эволюция механизма принудительного взыскания задолженности перед бюджетом. Россия. Налоги.

8. Виноходова И.Г. (2019). Совершенствование практики взыскания задолженности организаций по налогам и сборам. Россия. Научное статья.

9. I. Niyazmetov (2008). Soliq yukining tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatiga va budget daromadlariga ta’siri tahlili. O‘zbekiston. Nomzodlik ishi. Avtoreferat.

10. Sh. Toshmatov (2008). Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari. O‘zbekiston. Doktorlik ishi. Avtoreferat.

11. A. G‘iyosov (2019). Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarz dorliklarni kelib chiqishi tahlili. O‘zbekiston. Мақола - “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмиy elektron журнал.

12. X. Berkinov, A. Berkinova, B. Sultonov, X. Xoldorov (2008) “Iqtisodiy masalalarda korrelyatsion-regression tahlil modellari tatbiqi”. O‘zbekiston. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent. “Iqtisod-moliya”.

13. G. Nasritdinov (2008). “Ekonometrika” O‘quv-uslubiy qo‘llanma. O‘zbekiston “Iqtisod-moliya”.

14. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari.